

MUSOXON DAHBIDIYNING DAVLAT BOSHQARUVIGA MUNOSABATI

*Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich, “Yangi asr” universiteti
kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi*

THE ATTITUDE OF MUSOXON DAHBIDIY TOWARDS STATE GOVERNANCE

*Yuldashkhodjayev Khaydar Khashimkhanovich, Head of Department,
Associate Professor, Candidate of Historical Sciences,
“Yangi asr” University*

ОТНОШЕНИЕ МУСОХОНА ДАХБИДИ К ГОСУДАРСТВЕННОМУ УПРАВЛЕНИЮ

*Юлдашходжаев Хайдар Хашимханович, заведующий кафедрой,
доцент, кандидат исторических наук университета “Yangi asr”*



<https://orcid.org/0009>

-0003-3549-061X

e-mail:

haydarxon69@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, Ashtarxoniylar sulolasining tanazzuli hamda Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, Shohmurod Ma'sumning siyosiy, ijtimoiy va diniy sohalardagi islohotlari hamda naqshbandiya-mujaddidiya shayxlariga berilgan imtiyozlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: jo'ybor, jo'yboriy shayxlar, jamiyat, siyosat, ijtimoiy, Ubaydullohxon, Abulfayzxon, sulola, qabila, Sevinch Muhammad, otaliq, Mir Arab madrasasi.

Annotation: The article analyzes the socio-political and spiritual transformations that took place in Central Asia at the end of the 17th and the beginning of the 18th centuries, the decline of the Ashtarkhanid dynasty, and the rise of the Manghit dynasty to power. It also highlights the political, social, and religious reforms of Shohmurod Ma'sum, as well as the privileges granted to the Naqshbandiyya-Mujaddidiyya sheikhs.

Key words: Juybar, Juybar shuykhs, society, politics, social, Ubaidullah Khan, Abulfayz Khan, dynasty, tribe, Sevinch Muhammad, paternity, Mir Arab madrasah.

Аннотация: В статье анализируются социально-политические и духовные изменения, произошедшие в Средней Азии в конце XVII – начале XVIII веков, упадок династии Аштарханида и приход к власти династии Мангитов. Также освещаются реформы Шохмурода Маъсума в политической, социальной и религиозной сферах, а также предоставленные шейхам накшбандия-муджадидия привилегии.

Ключевые слова: жуйбар, жуйбарские шуйхи, общество, политика, социальное, Убайдулла-хан, Абульфайз-хан, династия, племя, Севинч Мухаммад, отцовство, медресе Мир Араб.

Kirish. Naqshbandiylilik va so'fiylik tariqatlarining dunyoviy lashuvi asosan jo'yboriylar davrida yaqqolroq namoyon bo'ldi. “Silsilot”da keltirilgan muhim ma'lumotlardan biri Maxdumi A'zamning tinchlik o'rnatishga qaratilgan faoliyati, shayboniylarning bitmas-tuganmas o'zaro ichki nizolar davri bo'lganligidir; Ayrimlarini tinch yo'l bilan hal qilgan bo'lsalar (159-a.b.164b.-166b),

boshqalarida shayx shayboniylarning diplomatik va harbiy yordamidan foydalangan (muridlar orqali). Ularning (Jo'yboriylarning.- Z.E) iqtisodiy va siyosiy qudratining oshishi obro'larining oddiy odamlar orasida tushishiga olib keldi.

Shundan kelib chiqqan holda jo'yboriy shayxlarining ta'sir doiralari ham yo'qolib bordi. Tariqat faoliyatining siyosatlashuvi ana shu tarzda

uning ma'naviy ta'sirini susaytirdi. Shu o'rinda o'z-o'zidan Xojagon – Naqshbandiyaning dastlabki ustozlari ta'kidlagan ogohlantirish yodga tushadi: "hukmdorlar ishiga aralashish", dunyoviy amallarga berilish, boylik ortidan quvish tariqatni nobud qiladi. Faqatgina XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Hazrati Musoxonxojai Dahbidiy naqshbandiya – mujaddidiya tariqatining obro'yini qaytadan tiklashga erishdi.

Mutasavvif olimlarni davlat mustahkamligining va taraqqiyotining asosi deb bilgan. Olimning o'zi o'lsa ham, lekin uning xalqqa nafi tegadigan ilmi hamisha barhayot qoladi, deb hisoblagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Manbalarga ko'ra, Maxdumi A'zam Xoja Bahouddin Naqshband mozarini ziyorat qilish maqsadida Buxoroga boradi. Xonaqohda suhbat qurar paytida, bir guruh (bir to'p) jamoa kelib Maxdumi A'zamga o'z hukmdori Sevinch Muhammad Sulton ustidan, uning fuqarosiga nisbatan qilayotgan zulmidan shikoyat qiladi. Shu asnoda Maxdumi A'zamni ziyorat qilish uchun hukmdorning o'zi ham kirib keladi. Xalq shikoyatidan ta'sirlangan imom hukmdorga faryod qiladi: "Hoy sulton, bu jamoa tufayli do'zax otashiga giriftor bo'lishni o'zingga ravo ko'rasanmi?" Shunga o'xshash tanbeh va nasihatlardan keyin sulton ta'sirlanib, darhol devon ishini qaytadan tuzib, fuqaroga adolatni ravo ko'rgan ekan.

Maxdumi A'zam hukmdorlarga: "Agar podshoh odil bo'lsa, uning karamidagi ra'iyat uni vasf qilur, agar zolim-u nodon bo'lsa, o'z fuqarosiga hamda o'z boshiga jabr-u zulmatlar keltirur", deb yo'llanmalar berar edi. Ya'ni, u davlat rahbarlari adolatli, vijdonli, qalbi pok, talabchan, tadbirkor, o'tkir zehnli, aql-zakovatli, uzoqni ko'ra biladigan kishi bo'lmog'i lozim, deb hisoblagan. U o'z nasihatlarini ba'zan hikoyatlar bilan hukmdorlar qulog'iga quyar edi: "Xoja Muhammad Porso (1345 – 1420 yy) zamonida ularga e'tiqodli bir podshoh bo'lgan va Hazrati Xoja o'z suxanlarini minbardan ochig'u ravshan aytar edilar. Podshohning almashinishi birla Eshon ham xatti-harakatlarini o'zgartirib, hatto xilvatda ham aytadigan suxanlarini aytmaydigan bo'ldilar. Buning boisini as'hoblar so'radilar, Xoja aydilar:

Chunki nomahram daromad az daram,
Parda – dar, pinhon shudand ahli haram.

Gar daroyad mahrame dur az gazand,
Barkushoyand on satiron ro'yband".

Tarjimasi (Z.E.):

Eshikdin nomahram kirgani hamon,
Haram ahli bo'ldi pardada nihon.

Gar kelsa mehribon bir rahmdil mahram,
Ochilur ul parda, ul ro'ypo'sh shu on.

Maxdumi A'zam o'z zamonida katta obro'ga jumladan, xonlar hurmatiga sazovor bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro xoni Iskandarxon Maxdumi A'zamga katta hurmat bildirib, uni o'zining piri hisoblagan. U o'zining farzandi Abdullaxon tug'ilganida (1533 y.) o'zining xizmatchisi Oxun Darvish Muhammadni katta sovg'alar bilan mazkur Saidzoda (Maxdumi A'zam)ning huzuriga yuborib, undan ism qo'yib berishni so'ragan. Maxdumi A'zam esa g'oyat xursandchilik bilan xonni o'g'il ko'rganligi bilan tabriklab, uning farzandiga Abdulloh deb ot qo'yishni maslahat bergan va shahzodani omadli bo'lishi uchun duo qilgan.

Maxdumi A'zam Qur'onga tayanib, hukmdorlarni mehr – shafqatli bo'lishga chaqiradi: Qola taolo: "Sabaqat rahmati g'azabi", ya'ni Haq subhona va taolo aytadikim: "Bandalarimga qahr-u g'azabimdan ko'ra shafqatim va rahmatim ortiqroqdir". Xuddi shuningdek, podshohlarning ham Xudoning bandalariga bo'lgan rahmi – shafqati, ularning qahr-u g'azablaridan ortiqroq bo'lishi kerakdir, toki, podshohlarning oliy himmatlari barakasidan mamlakat raiyati va darveshlari ham bu ulug' saodatga musharraf bo'lsinlar:

Ma'shuqa ba har sifat, ki oyad zuhur,
Az zulmati mahz yo xud az xolisi nur.
Oshiq ba hamon sifat mavsuf gardad,
Bar dini muluk ast raiyat ma'mur.

Mazmuni, ma'shuqa qay sifatda, yo zulmat yoki nur tarzida ko'rinsa, oshiq ham o'sha sifatga ega bo'lganidek, raiyat ham podshohlar dinida bo'ladilar, deb ta'kidlaydi. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari Xoja Ahrori Valiy va Muhammad Qoziylar ushbu ta'limotning amaliy tomonlariga e'tibor qaratgan bo'lsalar, Maxdumi A'zam shu amaliy tajriba asosida nazariy jihatlarini asoslashga harakat qiladi.

Maxdumi A'zam tariqatning rivoji podshohlarning unga xayrixohona munosabatiga bog'liq, degan fikrni qayta-qayta takrorlaydi:

“Ammo, ey tolibi sodiq, shuni bilgilki, agar zamon podshohlari ularga va ularning tariqatiga ixlos hamda e’tiqod qo’yib, ularga madadkor va yordamchi bo’lsalar, bu oliy toifa (naqshbandiylar – Z.E.) ul vaqtda bu sharif nisbat (tariqat – Z.E.) bilan shug’ullanib, uni rivojlantira oladilar. Aks holda, juda mushkul bo’ladi”. Maxdumi A’zamning risolalarini ko’zdan kechirganimizda uning kattagina qismi naqshbandiya faoliyatining ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag’ishlanganining guvohi bo’lamiz.

Bular orasida eng yirik asar – bu “Tanbeh us-salotiyn” (“Sultonlarga tanbehlar”) hisoblanadi. Qo’lyozmaning o’zbekcha va tojikcha tarjimai Akademik B.Valixo’jayev va K.Kattayevlar tomonidan nashrdan chiqarilgan. Ruscha tarjimasini esa B.Bobojonov amalga oshirgan. B.Bobojonov risolani “Sultonlarga nasihatlar” deb atagan. Aslida lug’aviy tarjimasini “Sultonlarga tanbehlar” deb nomlanadi.

Matnda Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’rni yoritilgan. Unda Shayx Najmiddin Kubro va uning izdoshlari – Sayfiddin Boxarziy hamda Husayn Xorazmiylarning vatanga sadoqat, diniy birlik va mustaqillik yo’lida ko’rsatgan xizmatlari haqida so’z boradi. Najmiddin Kubro mo’g’ullar istilosiga qarshi kurashda vatanparvarlik timsoli sifatida tilga olinadi, Sayfiddin Boxarziy esa mo’g’ullarni islomga da’vat etib, diniy birlikni saqlashga hissa qo’shgan. Husayn Xorazmiy Xorazmni himoya etishda faol bo’lgan, ammo uning vafoti bilan Kubroviya tariqatining yangi tarmog’i tugagan. Shunga qaramay, bu tariqat Yassaviya va Naqshbandiyaga nisbatan uzoq vaqt siyosiy va ijtimoiy ta’sirini saqlab qolgan. XVIII–XIX asrlarda esa Musoxon Dahbidiy Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining yetuk vakili sifatida siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynagan. U siyosatdan chetda turgan bo’lsa-da, uning ta’limoti keyingi shogirdlari uchun jamiyat hayotida faol ishtirok etish zaminini yaratgan. Musoxon Dahbidiy podshohlar haqida so’z yuritir ekan, Aristotel va Aflotunning Iskandarga yozgan maktubini keltirib, dunyo lazizatlariga berilmaslik va oxirat saodatini ustun qo’yish g’oyasini ilgari surgan.

Xulosa. Dahbidiylar sulolasi bo’yicha qator tadqiqotlar va kitoblar muallifi o’zining bir necha kitobida Musoxon Dahbidiy haqida ma’lumot berib, uni qutbul aqtoq, qayyumi zamon sifatlar bilan zikr etadi va jumladan shunday deydi: “Xonxo’ja ibn Musoxon Dahbidiy, qutbul aqtoq, qayyumi zamon Musoxonxojaning to’ng’ich o’g’li Otasi vafot etgach, xalifalar uni o’rinbosarlikka saylashadi. Otasidan keyin qisqa vaqt umr ko’rib, dorul irshod Dahbed xonaqohi korxonasini oz muddat boshqargan. Oxirgi ashtarxoniy podsho Abulfayzxonning kuyovi edi”.

Keltirilgan ma’lumotga qaraganda mazkur nikoh Musoxon Dahbidiyning hayotlik paytida amalga oshirilgan. Bundan, mutasavvifning Markaziy Osiyodagi e’tibori shunchalar katta bo’lganki, u xon oilasi bilan quda-andachilik qila olgan. Yoki aksincha, Dahbidiyning yuksak martabasi shunchalar ta’sirli bo’lganki, hukmdorlar ham qiz berib kuyov qilish orqali xalq oldidagi mavqelarini yanada mustahkamlashga harakat qilganlar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Мухаммад Қози. Силсилат ул-орифин. Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. №11413 / 1. 164 б – 166 б.
2. Абул Бақо ибн Баҳовуддин. Жомеъ – ул – мақомот // Тарж. Илёсхон Ғозий. -Т., 1994. – 269 б.
3. Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. -Т.: Шарк. 1999. – 89 б.
4. Хожогий Аҳмад Косоний. Зубдат ус-соликийн ва танбеҳ ус-салотийн // Тарж. Б.Валихўжаев. -Самарқанд.: Сўғдиёна. 1994. – 60 б.
5. Акимущкин О.Ф. (от учеников и коллег) Мудрость суфи. -Санкт Петербург.: Азбука, 2001. -187 с.
6. Э.Каримов. Кубравийский вакф: XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравия в Средней Азии. С. 22.
7. Каттаев Комилхон. Тасаввуф алломалари. – Т. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б.179.

